

**“SHAYTANAT” ASARI HAMDA KINOFILMIDA ASADBEK OBRAZINING
GAVDALANISHI****Ilhombayeva Mahliyo Umidjon qizi***UrDU O‘zbek filologiyasi fakulteti o‘zbek tili ta‘lim yo‘nalishi talabasi*

Annotatsiya. *"Shaytanat" – taniqli adibimiz Tohir Malik qalamiga mansub bo‘lgan ushbu asar o‘tgan asr o‘rtalarida yaratilgan bo‘lishiga qaramasdan, hamon o‘z kitobxonlarini ta’sirlantirib kelmoqda. Ushbu asar asosida suratga olingan kinoserial haligacha o‘z muxlislarini TV qarshisiga mixlab qo‘ya oladi. Ushbu maqolada "Shaytanat" asari markazida turuvchi qahramon Asadbek obrazidagi konfliktlar, uning birda ijobiy, birda salbiy xislatlari haqida – bir so‘z bilan aytganda Asadbekning siz-u biz kitobda o‘qimagan kechinmalari haqida batafsil keltiradi.*

Biror asar mutolaa qilar ekanmiz ma’lum muddat davomida o‘zimiz bilmagan holatda uning ishtirokchisiga aylanib qolamiz. Undagi qahramonlar, kechayotgan voqealar bevosita hayotimizga ko‘chadi. Bola paytimdan beri ko‘plab jahon va o‘zbek adabiyoti adiblari va ularning asarlari bilan tanishib, mutolaa qilib kemoqdaman. Dastlab faqat sarguzashtga boy, ishqiy asarlar o‘qirdim. Bir kuni qo‘limga Tohir Malikning “Shaytanat” asari tushib qoldi. Oldin bu asar haqida eshitgan edim, ammo mutolaa qilishga ulgurmagandim. Balki, detektiv asarlarga qiziqmaganim uchun o‘qiy olmagandirman. Eshlasam shu asarni o‘qib boshlaganimga hali ko‘p bo‘lmagan ekan, yaqinda o‘qib tugatdim-u taassurotlarimni bayon qilishga shoshildim. Shu haqida biroz bo‘lsa ham to‘xtalib o‘tsam.

Tohir Malik juda mulohazali, o‘tkir fikrli va diyonatli inson bo‘lib hayot yo‘lida esa eng halol va haqgo‘yiligi bilan o‘zgalar e’tiborini qozongan. Inson jismonan o‘lishi mumkin, ammo uning siymosi qalblarda insonlar ongida yillar yashaydi. Tohir Malik o‘zining bestseller asari bo‘lgan “Shaytanat”ning ham boshqa qismlarini yozib ulgurganligi ammo haligacha chop etmaganini o‘zining intervyularidan birida bildirib o‘tgan. Dunyo yaralibdiki, ezgulik va yovuzlik mudom insoniyatni kurashga chorlab keladi. Tohir Malikning “Shaytanat” olami haqida hikoya qiluvchi ushbu asarni necha yillardan buyon o‘quvchilar e’tirofiga sazovor bo‘lib kelmoqda.³⁵ Asarda qahramonlar bir-biri bilan shu darajada uzviy bog‘langanki, har bir obraz bir masala uchun yechim bo‘ladi. Asarning bosh qahramoni O‘qilon – Shaytanat olamining vakillaridan, nafaqat vakili, balki “yo‘lboshchilaridan” bo‘lgan Asadbek har qancha yovuz, qahri qattiq kishi bo‘lmasin, u, avvalo, inson edi. Zero, har qanday ona o‘z farzandini dunyoga keltirar ekan uni jinoyatchi, o‘g‘ri, yoxud qimorboz bo‘lsin degan niyatda dunyoga keltirmaydi. Asadbekning yuragida ham boshqa insonlarga xos xislatlar mavjud. U o‘z o‘rnida jonkuyar farzand, mehribon ota, g‘amxo‘r do‘st, samimiy aka hamdir. Uning mana shu

³⁵ Tohir Malik Shaytanat (1-kitob). – Toshkent: “O‘ME”, 2018. 414 bet..:

burchlarini bajarish holatida esa ruhan ezilib, iztiroblar iskanjasida qolganligini ko‘rishimiz mumkin. Darhaqiqat, asarda talqin etilganidek Asadbek birovning taqdirini hal qilish onlarida, umriga nuqta qo‘yishga farmon berayotgan chog‘ida, bir tuki ham qilt etmaydi, zarracha shafqatni bilmaydi. Asadbekning ruhiy iztiroblari, ruhiy azoblanishi, otalik, farzandlik burchlarini bo‘yniga olgan holatidagina juda asosli talqin etilganini ko‘rishimiz mumkin. U topshiriq berish borasida diydasi qattiq, bu birovni bolasi deb ayab o‘tirmas, lekin Asadbek g‘animlari uchun toshbag‘ir, farzandlari uchun g‘oyat mehribon inson sifatida uning xarakteri shakllanib boradi. Qizining o‘g‘irlanishi esa unga juda og‘ir zarba bo‘ladi. Asadbek qimorboz, o‘g‘ri, jinoyatchi bo‘lsa-da, oila, farzand nima ekanligini teran his etardi.

“Shaytanat” deganda inson ko‘z oldiga Asadbek, Asadbek deganda esa “Shaytanat” keladi. Bu uzviy tushunchalarni bir-biridan ayro tasavvur etib bo‘lmaydi. Chunki asar va qahramonni yagona ko‘prik – O‘zbekiston xalq aktyori Yodgor Sa‘diyev bog‘lab turibdi. „Shaytanat“ asari asosida 1998-yilda kriminal teleserial suratga olindi. „Shaytanat“ — O‘zbekistondagi eng mashhur teleserial hisoblanadi. 1999-yilgi namoyishdan so‘ng uning televideniyaedagi namoyishiga hech qanday asossiz ta‘qiq qo‘yilgan edi. 2018-yilda ushbu ta‘qiq olib tashlanishi aytilgan. 2020-yil 23-martdan boshlab Zo‘r TV telekanalida namoyish qilindi. Serial 20 qismdan iborat bo‘lib, uning yakunlovchi 21-qismi haligacha suratga olinmagan. Aktyor Yodgor Sa‘diyev bilan bo‘lgan suhbatda Asadbek obrazi haqida quyidagicha gapirib o‘tadi: “Men Asadbek obraziga ijobiy yondashishga harakat qilganman. Tohir Malikning “So‘nggi o‘q” asari qahramoni Jahongirning gapini eslang: “Men bu millatni har qanaqa kamchiligi bilan yaxshi ko‘raman, chunki bu mening millatim”. Ana shu pozitsiyadan kelib chiqib, Asadbek obrazini o‘ta ablah qiyofada ko‘rsatmaslik uchun, Tohir akaga iltimos qilib bo‘lsa ham o‘zgartirganman. Chunki, asardagi obrazlardan biri Muhiddin otaning bir gapi bor: “Aslida, buning palagi toza edi...”. Asadbek rolini o‘ynayotgan paytimda keyingi faoliyatim nima bo‘ladi, deb o‘ylamaganman. Boshqa obrazlarim Asadbekka o‘xshab qolmasmikan, degan fikr xayolimga kelmagan. Qaytanga, men bu rol menga nasib etganiga xursandman. Ammo Asadbek rolini ijro etishim ijodkorlik faoliyatimda o‘zim izlagan “nimanidir topganim”ni anglatmaydi. Qidirayman, ammo topolmayapman. “Shaytanat”dan so‘ng uchta filmda rol ijro etibman”.³⁶

Asar hamda film o‘rtasidagi farqli jihat ham aynan Asadbek rolining salbiy yoki ijobiy ekanligida. Asarda Asadbek batamom salbiy obraz bo‘lsa, filmda uning ijobiy hislatlariga ko‘proq urg‘u qaratilgan. Asar hamda filmdagi Asadbek obrazi haqida adib Tohir Malikning o‘zidan:

-Salbiy obraz deganlar ham, ijobiy deguvchilar ham topildi. Siz o‘zingiz esa Asadbekni salbiy qahramon dedingiz. Vaholanki, asar davomida rahmdil kitobxon uni yaxshi ko‘rib qoladi, - deb so‘rashganda:

³⁶ Anvar Namozov. Tohir Malik gurunglari. O‘zbekiston NMIU, 2016.

– «Rahmdil kitobxon» emas, «rahmdil kinotomoshabin» desangiz to‘g‘ri bo‘ladi. Chunki kitobni o‘qigan odam Asadbekni yaxshi ko‘rishi mumkin emas. Kitobda uning barcha illatlari berilgan. Kinoda esa bironta kamchiligi yo‘q, go‘yo farishta! Farzandlariga «Asadbek» deb ism qo‘yayotganlar ham kinodan ilhomlanishgan.

Kitobdagi Asadbek, shubhasiz, salbiy odam. To‘g‘ri, uning ayrim mardliklari ham bor. Lekin odam o‘ldirgan yoki o‘ldirishga hukm etuvchini yaxshi kishi deya olamizmi? Ba‘zilarga Asadbek yaxshi ko‘rinayotganday tuyulishi ham mumkindir. Lekin bu, menimcha, aldanchi tuyg‘u. Diqqat qilaylik: aslida biz Asadbekni yaxshi ko‘rmaymiz, boshiga kulfatlar yog‘ilayotgani uchun unga achinayapmiz. Boshiga nima uchun kulfat do‘llari yog‘ilayapti? Bunga Jalilning gapi javob bo‘ladi: «Xudodan qaytibdi!». Hali Zaynab tug‘ilmasidan oldin qizi xo‘rlangan mushtipar ona ularni qarg‘agan edi, eslaysizmi? «Dunyo shaytonning do‘koni, undan bir narsa oldingmi, shayton haqini undirib olmaganicha tinchimaydi». Asadbek shaytonning do‘konidan ko‘p narsa olgan edi, yillar o‘tib, qizining nomusi va bir o‘g‘lining joni bilan haq to‘ladi. Dunyoda hech qanday zulm jazosiz qolmaydi. Men bu satrlarni atay beshinchi kitobda takrorladim, - deya javob beradi.

Adib asarda Asadbek obrazini gavdalantirar ekan shunday shaxs bo‘lish kerak demoqchi desak yanglishamiz. U qanchalar mard bo‘lmasin jamiyatda bunday shaxsning bo‘lishi hamma uchun xavfli.

Diqqat bilan asara e‘tibor bersak, «Nafsning kelajagi zulmdir, zulmning kelajagi esa xorlikdir» degan fikr asarning shiori deyish ham mumkin. Adibning bu kabi asarlarni yozishdan maqsadi shaytanat olami, ya‘ni shaytonlarga tobe bo‘lgan jinoyat olami bilan yoshlarni tanishtirib, ularni bu yaramas yo‘ldan qaytarishga urinishdir desak xato bo‘lmaydi. Boshqacha aytganda atrofimizda shunday qabih olam borligidan odamlarni ogoh etishdir. Bizning adabiyotimizda hali «qonundagi o‘g‘ri» deb atalmish jinoyatchilar olami bayoni berilmagan edi. Bu olamning shioriga e‘tibor bersak: «Dunyoda o‘g‘ridan boshqa hech kim inson taqdirini hal qilish huquqiga ega emas!». Mana shunday zulm olamini biz bilishimiz kerakmi? Albatta kerak. Kelajagimizni bu olam ta‘siridan himoya qilishimiz uchun ham kerak. Harholda shu maqsadda qo‘lga qalam olgan desak bo‘ladi. Agar biron-bir asar tarbiyaga xizmat qilmas ekan, yozuvchining urinishlari zoye ketadi. «Qozonga yaqin yursang, qorasi yuqadi...» degan maqol bor. Shaytonlar olamini o‘sha qora qozon deb tasavvur qilsak, bu qora qozon ko‘zga ko‘rinmaydi. Shunday ekan, unga yaqinlashish, qorasini yuqtirish xavfi bor.

Asarni o‘qiganimizda menimcha ko‘pchilikni Asadbekning o‘lish yoki o‘lmasligi qiziqтира kerak. Yoki Jamshid bilan Zaynabning munosabatlari o‘ylantiradi. Aksariyatimiz Asadbekning tirik qolishini xohlardik. Lekin shuni ham inobatga olish lozimki, Asadbek odam sifatida kitobda tirik qolishi mumkindir. Ammo jinoyat olamining sardorlaridan biri sifatida hayotimizda qolishi mumkinmi? Bu masalada ramziy ma‘no izlashimizga to‘g‘ri keldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Tohir Malik Shaytanat (1-kitob). – Toshkent: “O‘ME”, 2018. 414 bet..:
2. Anvar Namozov. Tohir Malik gurunglari. O‘zbekiston NMIU, 2016.